



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) SJIF 2023: 6.907

<sup>1</sup>Muxayyo Vafoyeva

<sup>2</sup>Maftuna Abdikarimova

<sup>1</sup>Samarqand davlat universiteti,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

<sup>2</sup>Samarqand davlat universiteti, talaba

## O'QUVCHILAR NUTQINI BOYITISHDA LINGVISTIK VA MANTIQIY MASHQLARNING AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilar nutqini va aqliy faoliyatini o'stirishda lingvistik va mantiqiy mashqalardan foydalanish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lif, mashq, lingvistik mashqlar, ta'lif tizimi, mantiqiy mashqlar.

**Abstract:** This article discusses the use of linguistic and logical exercises in the development of students' speech and mental activity.

**Key words:** primary education, exercise, linguistic exercises, will, educational system, logical exercises.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается использование лингвистических и логических упражнений в развитии речевой и мыслительной деятельности учащихся.

**Ключевые слова:** начальное образование, упражнения, лингвистические упражнения, воля, образовательная система, логические упражнения.

### KIRISH

Hozirgi rivojlanib borayotgan texnika va texnologiya davrida o'z o'mida ta'lif sohasida ham bir mucha ijobjiy o'zgarishlar bo'lmoqda. Ta'lif tizimimizda boshlang'ich sinf o'quvchilariga katta e'tibor qaratilmoqda, buning asosiy sababi esa, boshlang'ich ta'lif kelajak rivoji va gullashi uchun poydevor hisoblanishidir.



O‘quvchilarning kelajak hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun boshlang‘ich sinflardayoq o‘zining mustaqil fikrlashini, o‘zining fikrini erkin bayon etishiga zamin hozirlanishi lozim. Shu o‘rinda o‘quvchilarning erkin fikrlashi va ravon so‘zlay olishida fanlarning, ayniqsa, ona tili fanining o‘rni beqiyos, albatta.

So‘zlashdan maqsad – fikrimizni tinglovchiga to‘g‘ri va aniq yetkazishdan iboratdir. Bir fikrni tilda turli vositalar yordamida ifodalash mumkin, lekin so‘zlovchi til vositalarining eng muvofig‘ini nutq jarayonida qo‘llaydi. O‘zbek tilida gapira olish bu tilni yaxshi biladi degani emas. Buning uchun so‘zlovchi o‘z ona tilini puxta bilishi, grammatik qonun-qoidalari, lug‘at boyligi, fonetik, stilistik xususiyatlarini yaxshi egallashi, uning barcha boyliklaridan o‘rinli foydalana olishi zarur.

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo‘libgina qolmay, balki uni shakllantirish quroli ham sanaladi. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o‘sirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o‘sirish mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar nutqini o‘sirishda mavzuga tegishli materialni tanlash, tayyorlash, takomillashtirish, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilgan ish turlariga alohida ahamiyat berish lozim.

### **ASOSIY QISM**

O‘quvchilarning nutqini boyitishda lingvistik va mantiqiy mashqlar katta ahamiyatga ega. “O‘z mehnatining maqsadini tushunish, unga erishish uchun harakat qilish, intilish bola faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bo‘lib, ular mashq qilish natijasida tarkib topadi. Bunga mashqlarni yetarli darajadagi qiyinchilik va murakkabligida o‘tkazish yo‘li bilan erishiladi”[5.1]. Til ta’limini lingvistik mashqlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Lingvistik mashq bu - o‘rganilgan va o‘rganilayotgan tilga doir bilimlarni mustahkamlash, ularni takrorlab tekshirishdir. Shu o‘rinda takidlab o‘tish joizki, berilayotgan mashqlar o‘quvchilarning tafakkur doirasida tuzilgan bo‘lib, soddadan murakkabga qarab tuziladi. Bu o‘quvchilarning xotirasi va fikrlashini asta-sekinlik bilan oshirishda “ustun” hisoblanadi. Quyida biz shunday mashq-topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

1-topshiriq. Berilgan so‘zlarni o‘qing. To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni chap ustunga, xatolarini esa o‘ng ustunga ko‘chiring.

Farzand	Kitob	mexnat	ko‘p	g‘aroyib	kitobhon
Kosa	Daptar	ro‘chka	bollar	ajoyip	masala

Namuna:





Farzand

.....

Ajoyip

.....

Ushbu mashq sodda mashqlar sirasiga kirib, bu orqali o‘quvchilar berilgan so‘zlarning o‘qilishi, yozilishi va talaffuzini o‘rganib boradi hamda keyingi mashqlarni bajarish uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**2-topshiriq.** Bilmasvoy bo‘g‘inlarning davomini topishga qiyalyapti. Xo‘sh, siz yordam berasiszmi?



Far-; no-; to‘g‘-;  
mak-; avto-; be-,  
shof-; pap-; sar-;  
nabi-; ro‘-; ki-.

nushta

hod

tob

ra

mol

tab

yor

ka

ri

dor

bus


at

Bilmasvoyga tegishli bu mashq o‘quvchilar ongini bir muncha charxlab, bo‘g‘in hosil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bolalar uchun qiziqarli hisoblangan yana bir mashqlardan biri bu “3 ta dushman – 3 ta do‘sit” deb nomlangan energizer (faollashtiruvchi) hisoblanib, bunda sinf o‘quvchilari 3 guruhga bo‘linib olishadi va bitta guruhdan 1 nafar o‘quvchi tashqariga chiqarilib kutib turishi tayinlanadi. Qolgan sinfdagi o‘quvchilarga esa uch bo‘g‘indan



iborat so‘zlar bir bo‘g‘indan bo‘lib beriladi va tashqarida kutib turgan o‘quvchi kirganida hamma bir ovozda o‘ziga tegishli bo‘g‘inlarni aytadi. O‘quvchi esa ushbu bo‘g‘inlardan qanday so‘z hosil bo‘lishini topishi zarur. Masalan “kamalak” so‘zini oladigan bo‘lsak, ka-ma-lak



Shunga o‘xhash so‘zlar:

- Kabutar
- Malaka
- Kundalik va h.k.

Mantiqiy mashqlar esa bolalarning o‘rgangan bilimlarini tartibga solishda katta ko‘mak beradi. Bunday mashqlar boshqacha qilib aytganda, hayotga tayyorlovchi bir pog‘onadir. O‘quvchi mакtabga kelganda uning lug‘at boyligi keng bo‘lsa ham, lekin tafakkurda fikrlash, taqqoslash, qarama-qarshi qo‘yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi. Mantiqiy mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini so‘z bilan aniq ifodalashga o‘rgatish va aqliy tomondan o‘stirish hisoblanadi. Har qanday mantiqiy mashq bo‘ladimi, yoki adabiy asar, matnlarni anglay olish, tushunish uchun o‘quvchilardan avvalo individual fikr so‘raladi. Har bir o‘quvchi ham berilgan topshiriqlardagi asl ma’nosini bir xil anglay ola olmaydi. Shu asnoda ham bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatda o‘quvchi yoshlarni mustaqil va mantiqiy fikrlashga o‘rgatish muhim masala sifatida ko‘rilmoxda. Shu sababli ham bugungi darsliklarda mantiqiy va qiziqarli lingvistik mashqalar ko‘payib bormoqda, albatta bu innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi. Shaxsan men o‘z ish faoliyatim jarayonida ko‘pgina mantiqiy mashqlar tayyorlab o‘quvchilar bilan ishlashga harakat qilaman. Shu oddiygina yaratilgan va oqilona yondoshgan g‘oyamiz o‘quvchilar uchun juda ham qiziqarli va esda qolarli bo‘ladi. Masalan: 3-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligidagi mashqlarga e’tibor qaratsak:

*Insonning tashqi ko‘rinishi va xususiyatiga oid so‘zlarni o‘qing va shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.*





Ushbu topshiriq orqali o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi:

- ✓ Berilgan so‘zlarni o‘qishadi;
- ✓ Ularning ma’nosini tushunishga harakat qilishadi;
- ✓ Berilgan tushunchalarni ko‘z o‘ngida gavdalantirishadi;
- ✓ Esda saqlash uchun o‘zlariga tushunarli ko‘rinishga olib kelishadi;
- ✓ Berilgan sifatlar orqali gaplar tuzishadi;
- ✓ Tuzilgan gaplardan shu ma’lum bo‘ladiki, bu so‘zlar insonlarni ta’riflashda ishlatiladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, berilgan bu mashq orqali o‘quvchilar bir emas, balki bir nechta ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi va takrorlash orqali bu bilimlar malakaga aylanadi.



### **5. Berilgan so‘zlarni ma’nosi bilan moslab, daftaringizga ko‘chiring.**

ko‘rimsiz	shug‘ullanmoq, band bo‘lmoq
usturlob	paxta ipidan qo‘lda to‘qilgan mato
mashg‘ul	ish jarayonida qo‘llanadigan vosita
asbob	yaxshi ko‘rinishga ega bo‘limgan
bo‘z	osmon jismlarini kuzatadigan asbob

Berilgan 5-topshiriqda esa o‘quvchilar chap ustundagi tushunchalarni o‘ng ustundagi ma’nolariga strelka bilan to‘g‘rilab qo‘yishlari kerak bo‘ladi. Bunday mashqlar bolalarda, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligini oshirishda ancha samarali hisoblanadi. Shunga o‘xhash yana bir mashqga e’tibor qaratsak:

- Harflarni o‘z o‘rniga qo‘yib, so‘zlarni o‘qing. Topgan so‘zlariningizdan gaplar tuzing.

chigarlan	Dakankor	Oshfarr
chituvvo‘qi	do‘zarz	Poshaz
Lolku	bonbog‘	Sarroshta

O‘quvchilarga yana mantiqiy mashq sifatida “Berilgan narsalardan bir guruhgaga kirmaydiganlarini ajratish” mashqini bersak ham bo‘ladi. Masalan: kitob-daftarruchka-*doska*-qalam so‘zлari ko‘rsatiladi va dastlab o‘qituvchi tomonidan *doska* – nega aynan shu so‘z ortiqcha ekanligi tushuntiriladi va ajratiladi, (apelsin-mandarin-limon-



kivi-ananas-olma; olma-o'rik-olcha- shaftoli-pomidor kabi )shu tartibda o'quvchilar ham mashqni davom ettirishadi.

## XULOSA

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola eshitganda (20 %), ko'rganda (30%), ko'rib eshitganda esa (50%), boshqalar bilan muloqotda bo'lganda (70%), ish tajribasida sinaganda (80%) va o'zi ishchan rolli o'yin, kichik guruh orqali o'rganganda (90%) ma'lumotlarni xotirada saqlab qolishi aniqlangan. Shunday ekan, o'quvchilarda eshitishdan ko'ra ko'rib, uni amaliyotda qo'llash anchagina samarali vosita hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilari sho'x-shaddod, qiziquvchan, shu bilan birgalikda, toliqqan, uyqusiragan, ba'zan o'zlarini passiv tutishadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasida katta mas'uliyat turadi. O'quvchilarni hali to'liq anglab yetmagan mashqlarga birdaniga olib kirmasdan, ularga interaktiv mashqlar, nutqini rivojlantirishda foyda beradigan mashqlardan foydalanish ham o'quvchilarga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi. Ular orqali o'quvchilarni faollashtirishga erishamiz. Yuqorida berilgan mashqlar ham o'quvchilarning aqliy faoliyatiga, mantiqiy fikrlashlariga, eshitishiga va, albatta, fikrlash qobiliyatlariga yetarlicha foyda keltiradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K.Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
2. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K.Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism [Matn]: darslik 3-sinf uchun / K.Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 144 b.
4. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-qism [Matn]: 3-sinf uchun darslik / K.Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 144 b.
5. Shayxislamov N.“Ona tili darslarida filologik mashqlarning tutgan o'rni” (maqola). <https://ruslit.jpu.uz/index.php/fll/article/view/1242/848>.
6. Qosimova K va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: “Noshir”, 2009.